

**MASHRAB G'AZALLARIDA DARD, ISYON VA TASAVVUFIY OZODLIK
G'OYASINING BADIY TALQINI VA TAHLILI**

Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Zumradxon Mahsumxonova

Annotatsiya: Mazkur ish Boborahim Mashrab ijodining asosiy badiiy qatlamlari-dard, ichki isyon hamda tasavvufiy ozodlik g'oyalari tahliliga bag'ishlanadi. Mashrab she'riyatining ruhiy-este'tik manbalari, uning tasavvufiy dunyoqarashi, ijtimoiy norozilik motivi hamda shaxsiy kechinmalari g'azallari misolida bevosita o'rgnib tahlil qilinadi. Shuningdek, shoirning lirikasidagi ramziy ma'nolar, falsafiy obrazlar va ruhiy kurash jarayonining badiiy talqinlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mashrab, tasavvuf, dard, isyon, ozodlik, sufiylik, lirika, ruhiy kurash, badiiy talqin, mumtoz adabiyot.

O'zbek mumtoz adabiyotining eng o'ziga xos, ruhiyati eng og'ir va chuqur qatlamli shaxslardan biri Boborahim Mashrabdir. Uning she'riy dunyosi oddiy lirikadan iborat emas. Balki, u insonning ichki to'lqinlari, ruhiy iztiroblari, dard va muhabbat, isyon va ozodlik, tasavvufiy ma'rifatning murakkab uyg'unligini aks ettirgan ulkan badiiy makon hisoblanadi. Mashrabning hayoti ham, ijodi ham iztirob va ozodlik o'rtasidagi doimiy kurashdan iborat bo'lib, uning she'rlari aynan shunday dramatik hayotning mahsulidir. Bu haqida adabiyotshunos olim Ozod Mo'min shunday deydi: "Mashrab ruhida yashovchi isyon nafsga, riyo va zo'ravonlikka qarshi isyondir, davlatga yoki odamga emas". Tohir Malik esa, "Mashrab - shunchaki shoir emas, o'z dardi bilan odamlarni tarbiyalaguvchi ruhiy murshiddir", - deb ta'riflaydi. Shunday ekan Mashrabning hayotini to'xtovsiz ruhiy iztirobga, she'riyatini -o'tli talpinishlarga boy desak bo'ladi. Biz Mashrabning she'riyati bilan tanishib uning dardi, alami, iztiroblarini Allohdan uzoqlashishga qarshi bo'lgan ruhiy qarshilik ekanligining guvohi bo'lamiz. Shoirning dunyoqarashi tasavvufning chuqur g'oyalari bilan yo'g'rilgan, ammo uning tasarrufi quruq falsafaga asoslangan desak xato bo'ladi. Unda chinakam yurak dardi, o'zini topish singari jarayonlarni



ko'rishimiz mumkin. Maqolaning yangiligi shundaki, Biz Mashrabning she'riyatidagi eng muhim uchlik-dard, isyon va tasavvufiy ozodlikning badiiy talqinini g'azallari misolida amalga oshiramiz.

Mashrab hayoti va faoliyati asosan O'rta Osiyo shahar-qishloqlarida kechgan, u ishqiy-tasavvufiy, isyonkorona she'rlari bilan shuhrat qozongan, xalq qalbidan chuqur joy olib o'zi haqida rivoyatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Ammo jamiyatimiz g'ayriqopiliyatli kishilarni qabul qilmagan, ularni qattiq qoralan, quvib kelgan. Mashrab ham bunday kishilarning safidan o'rin egallagan. U karomat sohibi, dardli va isyonkor qalb egasi, mo'jizakor avliyo, bilimdon, hozirjavob shoir, o'ta taqvodor, to'g'riso'z, halol, pokiza inson, dunyo moli va huzur-halovatidan umuman vos kechgan edi. Biz uning hayoti haqida "Devonayi Mashrab" qissasida Mullo Bozor Ohund, so'ng Ofoqxo'ja dargohida hoksor umri rivorat va naqllar aralash qilingan hikoyalardan bilib olamiz. U Hidoyatulla Ofoqxo'ja qo'lida murid bo'lib, 3yil o'tin teradi, 3yil meshkoblik qiladi. Mashrabning qalbiga kutilmagan ilohiy jazba yog'ilgani, uning Haqqa yetish yo'lida g'ayritabiiy qudrat bilan yuksalayotgani Ofoqxo'ja nazaridan chetda qolmadi. Shogirtning bu darajada erta ma'rifatga erishgani, ruhiy kuchi ustozidan ham o'tib borayotgani uni ichdan kuydiradi. Hasadning quyuq soyasida qolgan Ofoqxo'ja bu jazbaga toqat qilolmay, Mashrabni jazolashga qaror qiladi. Uni qattiq tan jazosiga mahkum etib, dargohidan haydaydi. Jazolashdan keyin Mashrabning ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. U tasavvufdagi "Jazba" holatining sinovli bosqichini boshidan kechirarkan, insoniy muhabbatlarni, ustoz-shogirt an'alarini o'zicha qayta talqin qila boshladi. Ofoqxo'ja tomonidan ko'rilgan bepisandlik va adolatsizlik Mashrabni Haqqa yanada yaqinlashtirdi. U ko'ngil dunyosida ozodlikni, Haqqa bog'lanishning pok shaklini tanladi va hayotini shundan keyin darveshlarcha kechira boshladi. Bu davrda u juda ko'p yurtlarni kezib chiqdi. Namangan, Xo'jand, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Istanbul, Makka, Madina, Xorazm, Kasbiy bo'yi kabi davlatlar bunga misol bo'ladi. U xalqma-xalq kezar ekan ko'p g'azallarining ommalashishiga sabab bo'ladi. Bu g'azalni misol qilib olsak bo'ladi.

Murodingga yetay desang qalandar bo'l qalandar bo'l,



Sitam ahlin yutay desang qalandar bo'l qalandar bo'l,
Riyoza'siz bo'lay desang qalandar bo'l qalandar bo'l,
Bu taqvodin kechay desang qalandar bo'l qalandar bo'l,
Haqiqatni ochay desang qalandar bo'l qalandar bo'l.

Shunday qilib u yurti Namanganga 18yil deganda keladi. 1711-yil Mashrabning hayoti tragik yakun topdi. Balx (Afg'oniston) shahrida u o'z davrining hukmdori, chalasavod, xushomadgo'y shaxslarning chaquvi,ig'vosi,diniy elitasining hasadi va norozi qarashlari sababli jazoga tortildi. Mashrabning ruhiy yuksalishi va xalq orasidagi obro'sidan charchagan hokimiyat uni dorga osishga qaror qildi. Shu tariqa Mashrab dunyoviy azob va zulmdan qocholmay, hayotini mardlik bilan yakunladi. Uning dorga osilishi faqat tanasi uchun olriq bo'ldi,lekin ruhini sindirolmadi. Aksincha, bu voqea uni abadiy eslab qolishga, tasavvuf va adabiyot tarixida o'z o'rnini mustahkamlashga sabab bo'ldi. Shu tariqa Mashrabning mardligi va ijodi xalq ichida dlston bo'lib, keyingi avlodlar uchun ilhom manbayi bo'lib qoldi.

Mashrabning adabiy merosini o'rganar ekanmiz uni an'anaviy devon ko'rinishida kelmaganini ko'ramiz. Uning asarlari bosh mavzusi diniy-tasavvufiy g'oyalar, qalandarlik tariqati g'oyalari hisoblanadi. Uning tasavvufi faqat kitobiy bilim va tashqi riylzat bilan emas,balki qalbni toza qilish,ichki sezgi va ilohiy jazba orqali boshib o'tiladi. Mashrabning yo'li odatdagi suluk yo'lidagi bosqichma-bosqich kamolotdan farq qiladi. U tez,yorqin va bevosita Haqqa erishish-"Jazba" orqali ruhiy yuksalishni boshidan kechirgan. Shuningdek Mashrab ijodida tasavvufiy falsafaning xalq hayotiga yaqinligi,oddiy odamlar bilan muloqot, ularni dardini anglash va ularga ruhiy yo'l-yo'riq ko'rsatish muhim o'rin tutgan. Boshqa ko'plab tariqat vakillari ichiga yopiq hayot kechirgan bo'lsa, Mashrabning yo'li ochiq,jonli va insoniy edi. Shu sababli uning she'rlari va g'oyalari odamlarning qalbiga tez yetib borar, tasavvufiy ma'rifatni keng qatlamlarga yetkazar edi. Mashrabning tasavvuf yo'li qalbning ichki erkinligi, tashqi dunyo hukmlari va bo'ysunishlaridan ozod bo'lishga asoslangan edi. U uchun haqiqiy erkinlik -bu dunyoviy boylik, hokimiyat yoki rasmiy tartib -qoidalarga bo'ysunmaslik,faqat



Haqqa yuzlanish va qalbni poklashdir. Mashrabning isyoni esa-bu tashqi dunyoga ,noto'g'ri hukm,zulm va diniy mutaassiblikka qarshi ichki va tafakkuriy qarshi turish edi. Shu sababli uning ijodi ko'pincha iymoniy va axloqiy tanqid shaklida namoyon bo'lgan. Mashrab "dardchi" sifatida ham tanilgan. U xalqning dardini his qilgan ,insonlarning azob-uqubatlarini o'z qalbida ko'tarib,ularni ruhiy yo'l-yo'riq bilan yengillikka yetkazishga intilgan.

Yuqoridagi mazmunli fikrlarni keltirish bilan birgalikda uning asarlariga ham murojaat qilib o'tsak maqsadga muvofiq ish bo'ladi. Darhaqiqat, uni g ko'plab asarlarida ,ayniqsa, serma'no g'azallarida dard,isyon,ozodlik,kabi masalalarni motiv qilib olinganligining guvohi bo'lamiz. Endi esa Mashrabning ana shunday g'azallaridan ayrimlarini badiiy talqin va tahlil qilib ko'rsak.

"Mashrabman" radifli g'azali

Sanamning shavqida tinmay yurib ovvora Mashrabman,
Ko'zi yoshliq,qaddi xamliq,dili sadpora Mashrabman,
Ko'ngulda zarracha dunyoni mehri bo'lmayin menda ,
Seni deb ikki olamdin kechib bezora Mashrabman.
O'lib ketsam ,sening darding so'ngaktin ketmagay aslo,
Lahad ichra fig'on aylab,o'zim bechora Mashrabman.
Anodin qay kuni tug'dum,sening ishqingda oh urdum,
Muhabbat dog'ida o'rtab ,o'zum sayyora Mashrabman.
Muhabbat jomidin may tuttilar ,ichmaska choram yo'q,
Ko'zumdin qon yoshim tinmay oqar,xunbora Mashrabman.

Lug'at:

Sadpora-yuz pora,pora-pora.
Bezora-foydasiz.
So'ngak-suyak,ustuxon.
Lahad-qabr.
Sayyora-sayr qiluvchi.
Xunbora-qonli yoshi bilan yig'lash.

Zamonaviy o'zbekcha tabdili



Mahbubamning shavqi bilan tinmay ovvora yuradigan Mashrabman.
Ko'zim yoshlik,qaddim egik,dili pora Mashrabman.
Ko'nglumda dunyo mehri yo'q,unga joy bo'lmas.
Ikki olamni ham sevgi (sen)yo'lida tark etgan Mashrabman.
O'lib ketsam ham ,senga bo'lgan dardim o'lmaydi.
Go'rda ham nola qilaman,bechora Mashrabman.
Sening ishqingda oh chekkan kunim tug'ilganga o'xshayman.
Muhabbat dog'ida yonib ,dunyo kezaman ,say qiluvchi Mashrabman.
Muhabbat mayidin ich dedilar,ichmaslikka chora yo'q,
Ko'zimdin qonli yosh oqar,qonli yosh bilan yig'lovchi Mashrabman.

Chuqur tahlil

"Mashrabman" o'z ism-shaxsini takrorlab radif qilish orqali shoir o'zini butun she'r markaziga qo'yadi. Bu esa o'quvchida o'sha holatning doimiylikiga urg'u beradi-bu iztirob doimiy,cheksiz. Dard va uning estetikasi yaxshi ochib berilgan. Shoirning ko'z ypshlari,"oh" va "bechora" so'zlari o'zida dardni mujassamlashturgan."Ikki olamni tark etish" va "beozor" so'zlari-dunyoviy qadriyatlarni rad etish, tasavvufiy isyonkorlikni ifodalagan. Mashrabning bu yerdagi ishonchli isyoni:o'z ilohiy ishqini jamiyat v arasmiy norma ustidan qo'yganida namoyon bo'ladi. Muhabbat nafaqat insoniy,balki ilohiy yo'lda ham rahbar. Shoir uni o'z hayotining markaziga qo'yib ,ichki ozodligini e'lon qiladi.

"O'zginam" g'azali

Ishq o'tiga o'rtanib devona bo'lgan o'zginam.
Kuya kuya kul bo'lib biryona bo'lgan o'zginam.
O'shiqi diydorim,ey yor,bilmassan magar.
Mansuri Hallojdek dorga osilgan o'zginam
Kuya kuya kul bo'lib dunyodin o'tkan bormukin.
Ishq yo'lida ming o'lib ming tirilgan o'zginam.
Chok siynamni qilib Mahsharda aylarman fig'on
Ul kuni diydor deb Mahsharda buzgan o'zginam.
Ul sirotal mustaqiym oldida barcha yig'lashur



Ishqni rahbar qilibon andin o'tgan o'zginam.

Lug'at:

Mansur Halloj-tasavvufiy shaxs

Choh siynam-tubsiz jarohat

Mahshar-qiyomat

Sirotal mustaqiym -arabcha to'g'ri yo'l

Zamonaviy o'zbekcha tabdili

Ishq olovida yonib devona bo'lgan o'zginam.

Yonib kulga aylangan, biryon bo'lgan o'zginam.

Mahbubamni ko'rishni xohlardim, sen bilmasang ham men sening diydoring oshno.

Mansur Halloj kabi (dorga osilganidek) qiynalgan o'zginam.

Yonib kulga aylangan hola dunyodan o'tkan bormikan,

Ishq yo'lida ming marta o'lib, ming bir turilgan o'zginam.

Qiyomat kuni tubsiz jarohat bilan fig'on aylarman.

O'sha kuni diydor uchun qiyomatni buzgan o'zginam.

Qiyomatda sirot ko'prigida barcha sarosimada qoladi, yig'laydi.

Ishqni rahbar qilib undan ham o'tgan o'zginam.

Chuqur tahlil

"Kuya kuya kul bo'lib" -yonishning takroriy, doimiy tabiati, kulga aylanish-dunyoviy menlikning yo'qolishi. "Ming o'kib ming tirilish" -ruhiy doimiy sinovlar, tashxis, haqiqiy ozodlik uchun ketma-ket qurbonliklar. Mansur Halloj -jasorat va isyon timsoli. Halloj misoli shoirdagi tasavvufiy yo'lni ko'rsatadi: o'zi fanoga yetib, "Mwn Haqman" g'oyasining oqibatiga tayyorlik.

Bu timsol orqali ishqni haqiqiy va rad etilsada, tan olinmasada davom ettirish kerakligini ko'rsatgan. Mahshar sahnasi esa yor bilan ko'rishish imkoniyatini beradi. Bu ishqning abadiyligi, bu dunyo va oxiratni birlashtiruvchi g'oya hisoblanadi. Shuningdek, Mahshar kuni shoirdagi qat'iyat va umidni ham ko'rsatadi: hamma yig'lasa ham, oshiqqa faqat diydor kerak.



Tasavvufiy ozodlik va ichki isyon haqida quyidagilarni gapirishimiz mumkin. Shoirning " Ishqni rahbar qilib" deb e'lon qilishi- bu butun hayot falsafasining markaziy deklaratsiyasi;qonun,norma,oila, madaniyat -barchasi ishq nomidan qayta o'lchanadi.

Bu tasavvufiy suverenitet:shaxs o'z ruhiy holatini va ozodligini ishq orqali belgilaydi.

Fikrimizni yakunlash sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Boborahim Mashrab ijodi o'zbek mumtoz she'riyatining eng murakkab,eng chuqur qatlamli badiiy olamidir. Uning she'rlarida dard-ruhiy kamolotning boshlanish nuqtasi ,isyon-adolatsizlikka qarshi insoniy norozilik, tasavvufiy ozodlik esa-Haqiqatga eltuvchi ruhiy yuksalish sifatida talqin etiladi. Shoirning lirikasidagi ramzlar,obrazlar va ma'naviy -ruhiy qatlamlar inson qalbining tinimsiz izlanishlarini aks ettiradi. Mashrab ijodi bugungi kunda ham insonning ichki dunyosini anglash ,ruhiy poklanish va ozodlik sari intilish yo'lida muhim ma'naviy manbaa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fitrat.A. Mashrab.-Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti,1991.
- 2.Sirojiddinov,S. Tasavvuf va badiiyat.XVII-XVIII asr adabiyoti.-Toshkent;Fan,2012.
- 3.Navoiy,A. Mezon ul avzon va Majolis un nafois(Mashrab tasavvufiy lirik an'analari uchun manba sifatida)-Toshkent:Fan,1991.
- 4."Mashrab hayoti va ijodi"-ZiyoNET kutubxonasi,2024.
- 5."Boborahim Mashrab -tasavvuf va isyon".-Arxiv.uz.maqola,2022.
- 6.Boborahim Mashrab -G'azallar to'plami.(Elektron nashr).